



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 7-sentabr

Nº 2170

O'zbekiston Respublikasining ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 69-72-moddalari va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Mirzaxanov Akmal Xabibullayevich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Olmazor tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Shayxontohur tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Raximov Zarifjon Axmadovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Olmazor tuman sudining tergov sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Andijon viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Shahrixon tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Shamsutdinova Anjelika Alekseyevna – sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Chilonzor tuman sudining sudyasi lavozimiga tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Shermatov Shoxdiyor Baxtiyorovich – sudyalik lavozimida bo'lishning navbatdagi o'n yillik muddatiga Toshkent shahar sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga tayinlansin;

Raximjonov Raxmonberdi Kambaridinovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Angren shahar sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Xonkeldiyev Aziz Utkirovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Zangiota tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Nazarov Farrux Abdimuradovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Surxondaryo viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Denov tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Ernazarov Nizomidin Mehridinovich – sudyalik lavozimida bo‘lishning muddatsiz davriga, shundan besh yil muddatga Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Samarqand shahar sudi raisining o‘rinbosari lavozimiga tayinlansin va shu munosabat bilan Jizzax viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Maxmudov Maxmud Sultannazirovich – sudyalik lavozimida bo‘lishning muddatsiz davriga, shundan besh yil muddatga Xorazm viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Urganch shahar sudining raisi lavozimiga tayinlansin va shu munosabat bilan Xorazm viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Xasanov Murodjon Zabibullayevich – sudyalik vakolati muddati davriga Xorazm viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin;

Jonqobilov Akmal Fayzullayevich – sudyalik vakolati muddati davriga Surxondaryo viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Denov tuman sudining tergov sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin;

Farmonov Baxtiyor To‘ychiyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyat sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Toyloq tumanlararo sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Xajiyev Maqsud Ilxomovich – sudyalik vakolati muddati davriga Xorazm viloyat sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirobod tumanlararo sudi raisining o‘rinbosari lavozimidan ozod etilsin;

Aripov A‘zam Azizovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Astanov Mumin Karimovich – sudyalik lavozimida bo‘lishning muddatsiz davriga Toshkent viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimiga tayinlansin;

Karimov Xushnud Rimboyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Xorazm viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyati Nurafshon tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Pardayev Boburjon Mirzoyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Andijon viloyat ma‘muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Andijon viloyati Andijon tumanlararo ma‘muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Xaydarov Mirzohid Xudoynazarovich – sudyalik vakolati muddati davriga Andijon viloyati Andijon tumanlararo ma‘muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Sirdaryo viloyat ma‘muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov